

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11047590>

ALISHER NAVOIY ASARLARI TILI LEKSİKASI

Karamatova Parvina Shuxrat qizi

Ismoilova Shahlo Baxtiyor qizi

TerDU, o‘zbek filologiyasi fakulteti talabalari

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada buyuk adabiyotshunos, turkiy til va o‘zbek adabiy tilining asoschisi, go‘zallik kuychisi hisoblanmish Alisher Navoiyning turk tili va adabiyotiga qo‘shgan hissasi, turk tilining rivojidagi mislsiz ahamiyati yoritib o‘tilgan. Shuningdek, uning turk tiliga bo‘lgan e’tibori, shu tilda yaratilgan asarlarining betakrorligini ham ko‘rishimiz mumkin. Shu bilan birga Navoiy asarlarining til leksikasi haqida ham to‘xtalib o‘tilgan.*

KALIT SO‘ZLAR: *Alisher Navoiy, turk tili, o‘zbek adabiy tili, “Xamsa”, leksika, taom nomlari, kiyim-kechak nomlari.*

Alisher Navoiyning ijodi har bir davr uchun eng muhim ilmiy manba sifatida keng tadqiq etib kelinadi. Navoiy ijodining yuksak cho‘qqisi “Xamsa” asari (1483–1485)dir. Shoir birinchilardan bo‘lib turkiy tilda to‘liq “Xamsa” yaratdi va turkiy tilda shunday ko‘lamdor asar yozish mumkinligini isbotlab berdi. “Xamsa” tarkibiga “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ai sayyor”, “Saddi Iskandariy” kabi dostonlar kiradi. Alisher Navoiy turkiy tillar tarixidagi beqiyos va tengsiz adabiyotshunosdir. Uning turkiy tillar rivojidagi mehnatlari mislsizdir. Barchaning diqqat-e’tibori fors tili va uning qanchalar jarangdorligiga qaratilgan bir vaqtida, Navoiy turk tilining nechog‘lik go‘zalligi, boyligini to‘la ochib bera oldi va ushbu tilda takrorlanmas dostonlar, g‘azallar yaratdi. Turk tiliga bo‘lgan e’tiborning kuchayishiga, bu tilning gullab yashnashiga o‘z hissasini qo‘shdi. Navoiyning bu xizmatlari hanuzgacha avlodlar e’tibori va e’zozidadir.

Alisher Navoiy asarlari tili XV asr adabiy tilning nodir yodgorligi sifatida jahonda shuhrat qozonganligi ijtimoiy hayotning barcha sohalariga oid katta leksika aks etgan, o‘zbek klassik adabiy tilining fonologik va grammatik tizimi uning asarlari tufayli muayyan me’yorlarga tushdi va klassik asarlar tili sifatida o‘zining mavqeini hozirgacha saqlab qolmoqda. Alisher Navoiy sa’y-harakatlari tufayli eski o‘zbek adabiy tili nomi bilan yuritilgan bu til barcha jahhada adabiy til talablariga javob bera olgan. Shu tufayli ham unga o‘zbek adabiy tilining asoschisi degan buyuk e’tirof manzur ko‘rildi. Alisher Navoiy asarlarining til xususiyatlarini o‘rganish masalasi

ham dolzarb masalalardan biri sifatida olimlarning doimiy diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Q.Muhiddinov, X.Doniyorov, U.Sanaqulov, I.Nosirov, Z.Hamidov kabi tilshunos olimlarimiz Navoiy asarlarining leksik-semantik xususiyatlarini tadqiq etishga o‘z hissalarini qo‘sghanlar. Xususan, bulardan Xudoyberdi Doniyorov 1960-yillarning oxirida navoiyshunoslikning eng muhim qismlaridan biri hisoblangan Alisher Navoiy asarlarining tili va uslubi masalalarini keng ko‘lamda tadqiq etish ishlarini boshlab bergan.

X. Doniyorovning “Alisher Navoiy va o‘zbek adabiy tili” nomli ilmiy risolasida Markaziy Osiyo jug‘rofiyasida XI asrda shakllangan adabiy tilning XV asrda ulug‘ shoir tomonidan dunyoning eng rivojlangan adabiy tillari darajasiga olib chiqilgani, shu bois, eski o‘zbek adabiy tili tarixi XIX asrning ikkinchi yarmigacha nafaqat o‘zbek etnosi, balki boshqa qardosh turkiy xalqlar uchun ham birdek mushtarak adabiy til vazifasini bajarib kelganligi to‘g‘risidagi fikrlar keltirib o‘tilgan.

A. Navoiy asarlari til xususiyatlari haqida gapiradigan bo‘lsak, Navoiy o‘z asarlarida, albatta “**grammatika**” yoki “**fonetika**” so‘zini qo‘llagan emas. Lekin tilning grammatik va fonetik qonunlarini yaxshi bilgan, ularni bir-birlaridan yaxshi farqlagan va o‘ziga xos arabcha-forscha va turkcha-o‘zbekcha terminlar bilan atagan (amr, harf, harakat, hamza, voze’, voz’ - yasovchi yoki so‘z yasovchi, tajnis va ihom – ko‘p ma’noli so‘z: alam - ism, ot; almutakallim – so‘zlovchi; lafz, kalom, alfov kabi terminlar) hamda ular haqida o‘z davriga nisbatan juda muhim fikr va mulohazalar bayon qilgan. Jumladan, Navoiy turkiy (o‘zbek) tilining grammatik xususiyatlari haqida yetarli darajada fikr bildirgan. Turkiy tilda so‘z yasalishini xarakterlash jihatidan Navoiyning “-chi” affiksiga keltirgan misollari, ayniqsa, muhim va mufassaldir: “Yana biradolari borki, ba’zi alfovning so‘ngida “ch, i, ki, chi” lafzidur, ortturlar, yo mansabning, yo hunarning, yo peshananing izhori uchun: forsidiyo yo‘qtur, balki alar ham turkcha ayturlar”.

Navoiy, shuningdek -vul, -l kabi qo‘srimchalar orqali o‘sha davrda keng qo‘llanilgan “xirovul, qarovul, chingdovul, yanqovul, so‘zovul, patavul, kitpovul va yasavul, bakovul, shig‘ovul; qahol, yasol, qabol, to‘sqol, sevarg‘ol” kabi otlar yasalganligini ham qayd qilib o‘tadi. Navoiy asarlarining tili o‘z davrida mavjud bo‘lgan turkiy sheva, lahja va dialektlarning deyarli hammasining vokalizmini qariyb to‘liq ravishda aks ettirgan. Chunki 9 sostavli unli tovushlar tizimi va singarmonizm qonuniyati eski o‘zbek adabiy tilining asosiy bazalari bo‘lgan qipchoq lahjalarini ham, o‘g‘uz lahjalarini ham, o‘rta (o‘zbek-qorluq-chigil-uyg‘ur) lahjalarini ham tovush tizimlarini to‘liq aks ettirishga imkon bergen. Navoiy tilidagi qisqa hamda cho‘ziq “i” unli tovushi o‘sha davrdagi o‘g‘uz-turkman lahjalarining tovush tizimini to‘liq aks ettirish uchun hamda arab, ayniqsa, fors-tojik tilining ta’siriga kuchli ravishda

uchragan Hirot, Samarqand, Buxoro singari shahar shevalari vaular tipidagi shevalarning tovush xususiyatlarini aks ettirish uchun xizmat qilgan. Navoiy asarlari tilida uchrovchi ochiq “o”(u) tovushi esa shu keyingi aytilgan til va dialektlarda fonema darajasiga ko‘tarilgan lablashgan “0” ni aks ettirish uchun qo‘llangan.

O‘zbek tilshunosligida leksik qatlamlar yuzasidan bir necha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Biz ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlaridagi taom nomlari, kiyim-kechak nomlarining leksik xususiyatlari yuzasidan tahlil qilib o‘tamiz. Navoiy asarlari tilida taomga doir biz aniqlagan 56 leksema qo‘llanilgan bo‘lib, shundan 30 tasini turkiy so‘zlar, 19 tasini forsiy, 6 tasini arabiy, 1 tasini xitoycha 2 tasini hindcha o‘zlashmalar tashkil etadi. Demakki, taomga oid aniqlangan leksik birliklarning 53 % i turkiy so‘zlardan iborat. Masalan: 1. O‘tmak – non (ANATIL, 3 j. 612-bet). 2. Chalpak – chalpak (ANATIL, 3 j. 119-bet). 3. Ko‘moch / Kumoch – qo‘rga ko‘mib pishiriladigan non. 4. Kuloch - 1. Holvaga o‘xhash bir tur shirinlik. 2. Sharbat, bodom va qaymoq solib qilingan kulcha. (nabotiy kuloch birikmasi uchraydi). Alisher Navoiy asarlarida libos, kiyim-bosh so‘zlarining ma’nodoshi sifatida kisvat so‘zi ham ishlatilgan:

Bir qo‘y terisin chiqordi filhol,

Majnung‘a dediki: ‘Egningga sol.

Qo‘ydek bu terini xil’at ayla,

Boshdin ayog‘ingga kisvat ayla.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, O‘zbekiston ilm-fanini Navoiysiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Navoiy dahosining quadrati shundaki, u o‘zining amaliy faoliyati bilan turli til, lahja va shevalarga xos fonetik, leksik va grammatic xususiyatlarni umumlashtirdi, muayyan me’yorga soldi va sayqallashtirdi. Shu tariqa, yagona adabiy tilga asos soldi va bu tilni yuqori cho‘qqiga olib chiqdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. –T.: G‘ulom , 1979. –B.149.
2. Zohidov A. Ulug‘ shoir ijodining qalbi . –T.: O‘zbekiston , 1970. –B.12.
3. Olimov S. Navoiy va Naqshband . –T.: O‘qituvchi , 1996 . –B.146.
4. Abdug‘afurov A. Navoiy satirasi. –T.: Fan, 1966. –B.23.
5. Арипов М. Гуманизм Алишера Наваи. –Т.: Ўқитувчи, 1991. –Б.67.
6. Hayitmetov A. Alisher Navoiyning adabiy tanqidiy qurilishlari .–T.: Fan, 1939,- b33
7. Abdurahmonov G., Rustamov A. “Qadimgi turkiy til”- T: O‘qituvchi 1982-yil
8. Abdurahmonov G., Shukurov Sh., Mahmudov Q. “O‘zbek tilining tarixiy grammaticasi” -T:O‘qituvchi 2008